



ANTONIY JENKINSONNING ROSSİYADAGI MOSKVA SHAHRIDAN
BAQTRIYADAGI BUXORO SHAHRIGA SAYOHAT ASARI TARIXIY
MANBA SIFATIDA

Shomurodova Xurshida Xasan qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat univesiteti Tarix fakulteti

4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Abriyev Hazratqul Bo'ronovich

SamDU "Manbashunoslikva Tarixshunoslik" kafedrası

o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz sayyohi va diplomati Antoniy Jenkinsonning Moskva shahridan Buxoro shahriga qilgan sayohati manba sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Jenkinsonning XVI asrda Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro xonligi haqidagi kuzatuvlari, savdo yo'llari, siyosiy vaziyat hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotga doir ma'lumotlari ilmiy jihatdan o'rganiladi. Muallif Jenkinson sayohatnomasining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati, uning ishonchlilik darajasi va Yevropa hamda Markaziy Osiyo o'rtasidagi diplomatik va savdo aloqalarini yoritishdagi o'rni haqida xulosalar chiqaradi. Shuningdek, maqolada ushbu sayohatning Rossiya orqali amalga oshirilgani hamda uning geosiyosiy kontekstdagi o'rni alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zi: Buxoro, Baqtriya, Moskva, Antoniy Jenkinson, Lester grafligi, Market Harboro, Uilyam Jenkinson, Judet Marsh, Xiva, O'rta Osiyo, Ivan IV Grozniy, Astraxan.

Kirish. XVI-asr O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamda madaniy aloqalar tarixini o'rganishda tarixiy manbalar va sayohatnomalar muhim manba sifatida alohida o'rin egallaydi. Bu davrda Yevropa davlatlarining sharq mamlakatlari bilan bo'lgan qiziqishi ortib, yangi savdo yo'llarining izlash jarayoni kuchaygan edi.



Ko'plab sayyohlar bilan birgalikda savdogarlar tomonidan yozib qoldirilgan asarlar o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy holatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda .Xususan, ingliz savdogari va sayyohi Antoniy Jenkinson tomonidan yozib qoldirilgan (Rossiyaning Moskva shahridan Baqtriyaning Buxoroga) nomli asari XVI-asr voqealiklarini yoritishda muhim ahamiyatga ega .Muallif o'z safarlari davmida Moskvadan boshlab Kaspiy dengizi orqali O'rta Osiyoga yo'l olgan hamda Buxoroga tashrif buyurgan.Ushbu sayohat davomida u hududda siyosiy, iqtisodiy vaziyat, savdo yo'llari davlat boshqaruvi iqtisodiy aloqalar va aholining turmush tarzini bevosita kuzatib, o'z asarida batafsil bayon etgan. Mazkur davrda Buxoro Markaziy Osiyoning siyosiy va savdo markazlaridan biri sifatida xalqaro aloqalarda muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, Moskva kompaniyasi orqali amalga oshirilgan savdo va diplomatik munosabat ingliz savdogarlarining ushbu hududda bo'lgan qiziqishini yanada oshirgan. Shu jihatdan Antoniy Jenkinsonning sayohati nafaqat shaxsiy kuzatuvlar majmui balki o'sha davr xalqaro aloqalari amaliy ifodasi sifatida ham muhimdir. XVI-asr jahon tarixida Yevropa davlatlarining sharq mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy va diplomatik aloqalarni kengaytirishga qaratilgan faol tashqi siyosat bilan xarakterlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida yangi savdo yo'llarining ochilishi Yevropa davlatlarining xalqaro maydondagi mavqeyini mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Angliya davlatining sharq bozorlariga chiqish va bevosita savdo aloqalarini yo'lga qo'yish siyosati XVI-asrning muhim geosiyosiy jarayonlaridan biri hisoblanadi.

Antoni Jenkinson — 1529-yilda Angliyaning Lester grafligida joylashgan Market Harboro shahrida tug'ilgan. Otasi Uilyam Jenkinson boy savdogar bo'lgan. Antoniy Jenkinson yoshligidan tijorat va kemachilikka katta qiziqish bildirgan. Uning eng katta orzusi Hindistonga sayohat qilish edi. 1556-yilda Moskva kompaniyasining bosh tashkilotchilaridan biri bo'lgan. Moskva–London o'rtasida savdo aloqalarini rivojlantirishga harakat qilgan. Hayoti davomida Hindiston va Xitoy hududlarini o'rganishga intilgan. Bu hududlarga olib boruvchi savdo hamda karvon yo'llari haqida ma'lumotlar to'plagan. Sayohatlari davomida yozgan kundaliklari keyinchalik muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qilgan.U 1610-yil



dekabr oyida vafot etgan (ba'zi manbalarda 1611-yil 16-fevral deb ko'rsatiladi). Angliya davlatining sayyohlik va diplomatik tarixida muhim o'rin tutadi.¹

Antoniya Jenkinson yoshligidan tijorat va savdo sotiqqa qiziqqan bunga sabab oilaviy muhit edi. Uning otasi ham savdo ishlari bilan shug'ullanib katta mulk va boylik egasi edi. O'g'lining o'ziga munosib voris bo'lishi uchun yoshligidan savdogarlik faoliyatiga tayyorlab borgan. Antoniya Jenkinsonning turmush qurishi ham bu sohaga bog'liq edi. U 1568-yil 26-yanvarda Jon Marsh va uning rafiqasi Elisning qizi Judit Marshga uylanadi. Bu oilaning ham savdo sotiq tijoratga aloqalari bor va ancha yildan beri savdo sotiq bilan shug'ullanadi. Antoniya Jenkinson bu turmushdan manfaatdor edi. Ular olti qiz va besh o'g'il farzand ko'rishgan. Afsuski farzandlaridan faqat to'rt qizi va bir o'g'li yashashni davom etgan. Antoniya Jenkinson savdogar sifatida yaxshi ta'lim olgan edi. U 1546-yildan boshlab Yevropa va O'rta yer dengizi jumladan Levant va Shimoliy Afrikadagi dengiz sohillarida sayohat qilgan. U 30 yoshga to'lganda tajribali sayohatchi bo'lgan. Uning rafiqasi Judit Marsh og'ir falaj kasalligidan vafot etgandan so'ng rafiqasining vafot etish sanasini 1610-yil 13-noyabr deb ko'rsatiladi. Antoniya Jenkinson rafiqasi vafotidan so'ng vasiyatnoma tuzadi. Antoniya Jenkinsonning o'zi 1611-yil 16-fevralda Teyg qishlog'ida jiyani Zagari Jenkinson uyida vafot etadi va o'sha yerda dafn etiladi. Uning qabri Teyg qishlog'idagi Muqaddas uchlik cherkovi yonida.

Antoniya Jenkinson umrining so'nggi kunlarida do'sti Uilyam Sherardnikiga mehmonga borgan edi. Bu uning o'z kuchi bilan oxirgi marta harakat qilgan edi. Noyabr oyining boshlariga kelib u vasiyatnomaga imzo qo'ya olmaydigan darajaga kelib qolgan edi. Uning yashab qolgan yagona o'g'li ham xasta edi va Antoniya Jenkinson o'limi oldidan vasiyatnomaga quyidagilarni yozgan “ Genri ruhiy va jismoniy jihatdan zaif holatda “ qolar ekan 30 funt miqdorida me'ros qoldiriladi. Agar uning salomatligi yaxshilansa bu miqdorni 50 funtga oshirishini belgilagan edi. Shuning uchun ham uning me'rosini asosiy qismi naqt pul va tovarlar ko'rinishida katta nabirasiga qoldiriladi. Shuningdek Genrining kichik

¹ Muallif Boqiyev Ismoil “Antoniya Jenkinson sayohat kundaligida O'rta Osiyo tarixi xususida”.



farzandlariga ham me'ros ajratiladi. Ularning ismi Uilyam va Meri Jenkinson edi. Antoniy Jenkinson me'rosini turmushga chiqqan qizlari va uning farzandlari uchun ham ajratgan edi. Buxoro xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi rasmiy tus ola boshlagan elchilik aloqalari tarixi mahalliy va rus manbalari asosida yoritib beriladi. Unda 1558–1559-yillarda Buxoroda bo'lgan Antoniy Jenkinson elchiligi, 1563–1564-yillarda Buxoro va Xivadan Moskvaga borgan elchilarni kutib olish, va 1583-yilda Buxorodan Moskvaga elchi bo'lib borib qaytgan elchilik va boshqa aloqalar xususida ma'lumotlar beriladi. XVI asrdan biz Moskva davlatining Buxoro, Xiva va Eron bilan savdosi haqida birinchi rasmiy ma'lumotlarga egamiz.² Orta Osiyo xonliklari va Eron bilan bevosita aloqa qilish imkoni yaratildi. Bu Astraxan va Kavkazorti orqali o'tuvchi sharq savdosida Rossiyaga vositachilarsiz savdo qilish imkonini berdi. Natijada ushbu mintaqalar bilan tovar ayriboshlash kuchayib ketdi.³

Moskva va Orta Osiyo ortasidagi savdo aloqalari Astraxon, Kaspiy dengizi va Mangishloq orqali olib borilgan. Undan uyogiga quruqlik orqali Xiva va Buxoro bilan savdo qilingan. Shuningdek, Xiva orqali Bashqiriyaga, undan Osh va Qozonga savdo yoli bolgan. Orta Osiyoning Sibir bilan ham aloqalari Sibir Moskva davlati tarkibiga kirgandan so'ng ham susaymadi, balki aksincha kuchaydi.⁴

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Antony Jenkinsonning O'rta Osiyoga amalga oshirgan sayohati XVI asr xalqaro munosabatlar tarixida muhim o'ringa ega bo'ldi. Uning faoliyati oddiy sayohlik doirasidan chiqib, siyosiy, ijtimoiy -iqtisodiy maqsadlarni o'zida mujassam etgan murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, O'rta Osiyo hududining o'sha davrda Yevropa va Rossiya davlatlari uchun strategik ahamiyat kasb etgani, Buyuk ipak yo'lining muhim chorrahasida joylashgani bilan izohlanadi. Shu sababli Antoniy Jenkinson sayohatini Yevropa davlatlarining Sharqqa nisbatan olib borgan siyosatining ifodasi sifatida baholanishimiz mumkin

² Панков А. В. К истории торговли Средней Азии с Россией в XVI –XVII вв. -Т., 1927. –С. 23.

³ Ғулумов Х. Ғ. Ўрта Осиё ва Россия. -Т. Университет. 2007. 16 б.

⁴ Зиёев Х. Ўрта Осиё ва Сибир. -Т. Фан. 1962.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Prezident I.A. Karimov asarlari: "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi." - T.: O'zbekiston, 2012
2. Shavkat Mirziyoyev "Milliy tiklanishdan Milliy yuksalish sari", O'zbekiston NMIU 2020-y
3. Muallif Boqiyev Ismoil "Antoni Jenkinson sayohat kundaligida O'rta Osiyo tarixi xususida".
4. Панков А. В. К истории торговли Средней Азии с Россией в XVI –XVII вв. - Т., 1927. –С. 23.
5. Фуломов Х. Ф. Ўрта Осиё ва Россия. -Т. Университет. 2007. 16 б.